



JIZZAX VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

JIZZAX VILOYATINING  
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil  
yanvar-dekabr*



## JIZZAX VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Jizzax viloyatida 2024- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **1507,4** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **31,9** ming kishiga yoki **2,2 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **707,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9 %**), qishloq aholisi soni **800,1** ming kishi (**53,1 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**1507,4**ming  
kishi

### Tabiiy o'sish

**+34,0**ming  
kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi


#### Shahar

**46,9 %**

#### Qishloq

**53,1 %**

### Aholining tabiiy harakati, ming kishi




## Jizzax viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-dekabr



## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- yanvar holatiga





## Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

kishgi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1475,5</b>	<b>1507,4</b>	<b>102,2</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	191,6	195,8	102,2
Arnasoy	48,1	48,7	101,2
Baxmal	166,7	170,6	102,3
G‘allaorol	182,9	186,9	102,2
SH.Rashidov	236,8	243,1	102,7
Do'stlik	68,8	70	101,7
Zomin	175,2	179,6	102,5
Zarbdor	92,6	94,6	102,2
Mirzacho'l	54,5	55,4	101,7
Zafarobod	52,7	53,6	101,7
Paxtakor	79,2	80,9	102,1
Forish	96,9	98,4	101,5
Yangiobod	29,5	29,8	101,0

## QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR


**Ma'lumot uchun!**: tirk tugh'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirk tugh'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




2023- yil yanvar-dekabr oylarida **40,9** mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **27,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan minus 0,5 promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilda **27,9** promilleni tashkil etgan).

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti**
*2023- yil yanvar-dekabr, kishi*

	<b>2022- yil</b>	<b>2023- yil</b>	<b>O’sish sur’ati, % da</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>40743</b>	<b>40875</b>	<b>100,3</b>
<i>hududlar:</i>			
Jizzax sh.	5618	4962	88,3
Arnasoy	1158	1102	95,2
Baxmal	4891	5256	107,5
G‘allaorol	5182	5327	102,8
SH.Rashidov	6678	7275	108,9
Do‘stlik	1653	1689	102,2
Zomin	5106	5125	100,4
Zarbdor	2697	2595	96,2
Mirzacho‘l	1187	1102	92,8
Zafarobod	1370	1415	103,3
Paxtakor	2190	2125	97,0
Forish	2349	2255	96,0
Yangiobod	664	647	97,4


**Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi**
*2023- yil yanvar-dekabr*



2023- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:


- 1 nafar – 97,7%
- 2 nafar – 2,3%
- 3 nafar – 0,0%

## VAFOT ETGANLAR

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **6,8** mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,6** promille ni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan ko'rsatkich o'limlar soni tengligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- dekabr oylarida **4,6** promille bo'lgan).


### O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

*2023- yil yanvar-dekabr, kishi*




### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **50,9** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,8** % i – o‘sintalardan, **6,1** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **8,5** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **5,8** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **2,1** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **16,8** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.




### QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **11,9** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- dekabr oylarida **8,7** promille bo‘lgan).


### NIKOHDAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-dekabr oylarida **1,7** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega oshganligi kuzatildi (2022- yil yanvar- dekabr oylarida **1,2** promille bo‘lgan).

### Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-dekabr




2023- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **53,3 %** i farzandsiz, **26,7 %** i bitta farzand bilan va **20,0 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## AHOLI MIGRATSIVASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023- yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyati bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **6 307** kishini. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **8 427** kishini, migratsiya saldosi minus **2 120** kishini tashkil etdi. 2022 yilning mos davrida minus **1867** kishi bo‘lgan.


Jizzax viloyati bo‘yicha ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi  
2023- yil yanvar-dekabr, (kishi)



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **6307** ta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,5** promille bo‘lgan).

**Jizzax viloyati bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi**

2023- yil yanvar-dekabr, ( kishi)



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **8,4** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar- dekabr oylarida **5,8** promille bo'lgan

**Demografik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.



**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migrations o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

Tel: 72 222-81-39